

**“KASB JINS TANLAMAYDI” dasturi bo‘yicha**  
**ta’lim grantlarini olish uchun tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**  
**NIZOM**

## **1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Ushbu Nizom “TBC Bank” ATBning (bundan keyin “Bank” deb ataladi) “Kasb jins tanlamaydi” dasturi (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) doirasida 2025-2026 o‘quv yilida tadbirkorlik va/yoki STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo‘nalishlari bo‘yicha Hamkor universitetlarda bakalavriatning birinchi bosqichida yoki umumta’lim bosqichida (Foundation Year) o‘qish xarajatlarini qoplash uchun grant olish bo‘yicha xotin-qizlar o‘rtasida ochiq tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilash maqsadida **“TBC Bank” ATB** (bundan keyin **“Bank”** deb ataladi) hamda quyidagi universitetlar o‘rtasida ishlab chiqilgan:

- **American University of Technologies in Tashkent** (bundan keyin **“AUT”** deb ataladi);
- **IT Park University**;
- **TEAM University**;
- **Amity University in Tashkent**,

keyingi o‘rinlarda birgalikda **“Hamkor universitetlar”** deb ataladi.

1.2. Ochiq tanlov iqtidorli xotin-qizlarning sifatli ta’lim olishiga yordam berish, ularning salohiyatini rivojlantirish va iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlarida xotin-qizlarning ishtirokini kuchaytirish maqsadida o‘tkaziladi.

## **2-BOB. GRANT BO‘YICHA QO‘LLAB-QUVVATLASH HAJMI VA MOHIYATI**

2.1. Ochiq tanlov doirasida yeti nafar stipendiat aniqlanadi. Ularga hamkor universitetlarda (to‘lov-kontrakt asosida) bakalavriatning birinchi bosqichida yoki umumta’lim bosqichida (Foundation Year) ta’lim olish uchun quyidagi miqdorda to‘lov amalga oshiriladi:

- AUT — bitta grant;
- IT Park University – uchta grant;
- TEAM University — ikkita grant;
- Amity University in Tashkent —bitta grant.

2.2. Grant 2025-2026 o‘quv yilida birinchi o‘quv yilining to‘liq qiymatini qoplaydi;

## **3-BOB. ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA SARALASH MEZONLARI**

3.1. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi xotin-qizlarga ruxsat beriladi:

- O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘lgan xotin-qizlar;
- 2025-2026 o‘quv yilida Hamkor universitetlardan birida o‘qishni boshlashga tayyor;

- 4.0 dan past bo'lmagan o'rtacha attestatsiya bahosiga (GPA) ega bo'lgan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi attestatga ega.
- Umumiy bali (overall band score) **7.0** yoki undan yuqori bo'lgan **IELTS** sertifikatiga ega (*IT Park University* va *TEAM University* uchun *IELTSga muqobil sifatida ushbu universitetlarda ichki imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish ko'rib chiqilishi mumkin*);
- Tanlagan sohaga faol qiziqish bildiradi (olimpiadalar, loyihalar, tanlovlarda ishtirok etish va h.k.);
- Tadbirkorlik, texnologiya va/yoki innovatsiya sohasida faoliyat yuritishga intiladi.

3.2. Boshqa teng shartlarda nomzodlarga imtiyoz berilishi mumkin:

- imkoniyati cheklangan nomzodlar (Hamkor universitetlarga hujjat topshirishda tegishli ma'lumotnoma taqdim etishi lozim).

3.3. Ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

- Bank va Hamkor universitetlar xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari;
- Ta'lim olish uchun boshqa tashkilotlardan to'liq moliyaviy yordam olayotgan shaxslar.

#### **4-BOB. ARIZALARNI TOPSHIRISH TARTIBI VA SARALASH BOSQICHLARI**

4.1. Arizalar 2025-yil 21-iyuldan 13-avgustgacha qabul qilinadi. Har bir nomzod o'zi tanlagan Hamkor universitetlardan biriga ushbu universitetlar tomonidan belgilangan qabul tartibiga muvofiq mustaqil ravishda hujjat topshiradi. Ariza to'g'ridan-to'g'ri tegishli universitetga topshiriladi, bunda har bir universitet boshqalardan mustaqil ravishda arizalarni qabul qiladi va ko'rib chiqadi.

4.2. Ushbu Dastur doirasida grant olish uchun nomzodlar to'rtta Hamkor universitetdan faqat bittasini tanlab, tanlovda ishtirok etish uchun ariza topshirish huquqiga ega.

4.3. Grantlar bo'yicha savollarni quyidagi manzilga yuborish mumkin: [grants@tbcbank.uz](mailto:grants@tbcbank.uz)

**Saralash bosqichlari** (dastlabki grafik):

- 21-iyuldan 13-avgustgacha: Tanlangan universitetga arizalarni qabul qilish (zarur hujjatlar ro'yxati tanlangan Hamkor universitetda aniqlashtirilishi kerak);
- 14-avgustdan 18-avgustgacha: Arizalarni ko'rib chiqish;
- 19-avgustdan 28-avgustgacha: Tanlovning ikkinchi bosqichi: saralashning birinchi bosqichi final ishtirokchilari bilan suhbat yoki ijodiy imtihon;
- 10-sentabrgacha: Natijalarni sarhisob qilish, g'oliblarni aniqlash.
- 15-sentabrgacha (dastlabki sana, tasdiqlanishi lozim): taqdirlash marosimini o'tkazish.

Har bir nomzod quyidagilarni taqdim etishi kerak:

- Tanlangan Hamkor universitet tomonidan belgilangan talablar va qabul tartibiga muvofiq ta'lim olish maqsadida ariza topshirish uchun zarur hujjatlar.

- Umumiy ball (overall band score) 7.0 va undan yuqori bo'lgan IELTS sertifikati (*IT Park University* va *TEAM University* uchun IELTSga muqobil sifatida ushbu universitetlarda ichki imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish ko'rib chiqilishi mumkin);
- Grant olish uchun ariza (*1-ildovada keltirilgan Ariza shakliga muvofiq*).

## **SARALASH MEZONLARI**

### **1-bosqich. Birinchi bosqich natijalari bo'yicha saralash:**

- Tanlangan Hamkor universitet tomonidan belgilangan talablar va qabul tartibiga muvofiq ta'lim olish maqsadida ariza topshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarning mavjudligi.
- Grant olish uchun ariza mavjudligi (*1-ildovada keltirilgan ariza shakliga muvofiq*).
- 4.0 dan past bo'lmagan o'rtacha attestatsiya bahosiga (GPA) ega bo'lgan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi attestatning mavjudligi.
- Umumiy ball (overall band score) 7.0 va undan yuqori bo'lgan IELTS sertifikati mavjudligi (*IT Park University* va *TEAM University* uchun IELTSga muqobil sifatida ushbu universitetlarda ichki imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish ko'rib chiqilishi mumkin).

### **2-bosqich. Shaxsan suhbat o'tkazish orqali g'oliblarni saralash:**

Saralash komissiyasi nomzodlarni quyidagi mezonlar bo'yicha bevosita suhbat yoki ijodiy imtihon o'tkazish yo'li bilan baholaydi:

| <b>Blok</b>                                  | <b>Foiz</b> | <b>Baholash maqsadi</b>                                                                                                                                                                                         |
|----------------------------------------------|-------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Dasturda qatnashish motivatsiyasi va maqsadi | 20%         | Kelajakdagi faoliyat maqsadlari qanday shakllantirilgan, stipendiya dasturi va uning maqsadlari haqida tushuncha.                                                                                               |
| Yetakchilik salohiyati                       | 20%         | Jamoalarni boshqarish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, murakkab vaziyatlarni hal qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, jamoada ishlash va umumiy maqsad yo'lida insonlarni yetaklash tajribasiga egaligi |

|                                                                               |     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|-------------------------------------------------------------------------------|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ko'ngillilik faoliyatini yuritish va bilimlari bilan jamiyatga hissa qo'shish | 15% | Nomzodning ko'ngillilik va/yoki ijtimoiy faoliyatga jalb etilganlik darajasi, tajriba almashishga tayyorligi, xotin-qizlar o'rtasida STEM va tadbirkorlikni targ'ib qilish, shuningdek, uning jamiyat rivojiga hissa qo'shish salohiyati.                                                                           |
| Universitetni tanlash va yo'nalish haqida tushuncha                           | 30% | Hamkor universitet va ta'lim dasturini tanlashning asosiligi, tegishli bilim sohasiga kuchli qiziqish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni anglash va intensiv ta'lim olishga tayyorlik. Tanlangan sohadagi akademik yutuqlar, olimpiadalar, tanlovlar va ilmiy loyihalardagi ishtiroki hisobga olinadi. |
| Muloqot va o'zini tanishtirish                                                | 15% | Ishonch, aniqlik, mantiq, xayrixohlik, tizimlilik, fikr-mulohazalarga ochiqlik.                                                                                                                                                                                                                                     |

*\* Boshqa teng shartlarda imkoniyati cheklangan nomzodlarga imtiyoz berilishi mumkin.*

## 5-BOB. SARALASH KOMISSIYALARINI TASHKIL ETISH VA ULARNING ISHI

5.1. Tanlovning birinchi bosqichi har bir universitet tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Tanlovning ikkinchi bosqichini o'tkazish uchun har bir universitet uchun quyidagi tarkibda alohida saralash komissiyasi tuziladi:

- Universitetdan kamida uch nafar vakil;
- Bankning kamida bitta vakili;
- Hakamlar hay'atining mustaqil a'zolari va kuzatuvchilari: Osiyo taraqqiyot banki, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA), "BMT-Ayollar" tuzilmasi (UN Women) vakillari, fuqarolik faollari. Bank tanlovning ikkinchi bosqichida qatnashadigan mustaqil hakamlar hay'ati a'zolari va kuzatuvchilarning umumiy ro'yxatini belgilaydi.

5.1. Komissiyalarning qarorlari yakuniy hisoblanadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Saralash komissiyalari Hamkor universitetlarning har biri uchun g'oliblar ro'yxatini quyidagicha shakllantiradi:

- AUT: bir nafar g'olib va uch nafar zaxira g'olib.
- IT Park University: uch nafar g'olib va uch nafar zaxira g'olib.

- TEAM University: ikki nafar gʻolib va uch nafar zaxira gʻolib.
- Amity University in Tashkent: bir nafar gʻolib va uch nafar zaxira gʻolib.

5.3. Apellyatsiya mexanizmlari nazarda tutilmagan.

## **6-BOB. BITIRUVCHILAR VA DASTURDAN KEYINGI FAOLIYAT**

6.1. Tanlov gʻoliblari oʻqishning birinchi semestri yakunlari boʻyicha belgilangan malaka talablarini muvaffaqiyatli bajarish majburiyatini oladilar. Belgilangan minimal akademik koʻrsatkichdan oʻta olmagan taqdirda, stipendiat ikkinchi semestr uchun grant olish huquqidan mahrum etilishi mumkin. Bunda ikkinchi semestrda oʻqishni moliyalashtirish huquqi tegishli bosqichda eng yuqori akademik koʻrsatkichlarga ega boʻlgan talabaga, agar u boshqa taʼlim grantlari oluvchi boʻlmasa, beriladi.

6.2. Stipendiatlar qisqa choraklik fikr-mulohaza bildirish shakllarini toʻldirib, Bankka yuboradilar.

6.3. Oʻqishning birinchi yili yakunlanganidan keyin bir yil oʻtgach, stipendiatlar Bankka talabalik davridagi yutuqlari va universitetning talabalar hayotidagi ishtiroki haqida qisqacha hisobot taqdim etishlari kerak. Bank taqdim etilgan materiallardan (toʻliq yoki qisman) marketing maqsadlarida, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlarda foydalanish huquqini oʻzida saqlab qoladi.

## **7-BOB. YAKUNIY QOIDALAR**

7.1. Gʻolib (final ishtirokchisi) grant olishdan bosh tortgan taqdirda, grant olish huquqi komissiya tomonidan belgilangan navbatga muvofiq zaxira roʻyxatidagi navbatdagi ishtirokchiga beriladi. Oʻrinni boshqa shaxsga berish uchta zaxira nomzoddan iborat tasdiqlangan roʻyxat doirasida ketma-ket amalga oshiriladi.

7.2. Tanlov gʻoliblari (final ishtirokchilari) tanlagan universitet va Bank bilan bakalavriyatning birinchi bosqichida taʼlim olish uchun grant ajratish toʻgʻrisida uch tomonlama shartnoma imzolaydilar.

9. Tanlov bilan bogʻliq barcha savollar elektron manzilga yuboriladi: [grants@tcbank.uz](mailto:grants@tcbank.uz)

10. Ushbu Nizom Bank va har bir Hamkor universitet oʻrtasida oʻzaro anglashuv va hamkorlik toʻgʻrisidagi memorandumlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi hamda tegishli Memorandumlarning amal qilish muddati yakunlangunga qadar oʻz kuchini saqlaydi.

1-ilova. Ta'lim grantini olish uchun ariza shakli.



## **“TBC Bank” ATBning “KASB JINS TANLAMAYDI” DASTURI DOIRASIDA 2025-2026 O‘QUV YILIDA TA’LIM Olish uchun ta’lim grantiga ariza**

Ushbu ariza STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yoki tadbirkorlik yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha 2025-2026 o‘quv yilida bakalavriatning birinchi bosqichida ta’lim olish maqsadida ochiq saralash jarayonida ishtirok etish uchun taqdim etiladi.

Grant “TBC Bank” ATB tomonidan quyida keltirilgan universitet bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan “KASB JINS TANLAMAYDI” dasturi doirasida taqdim etiladi (*tegishli universitetni belgilang*).

- ☐ American University of Technology in Tashkent
- ☐ IT Park University
- ☐ TEAM University
- ☐ Amity University in Tashkent

Ushbu arizani to‘ldirish va topshirish Dasturda ishtirok etish shartlariga rozilik bildirishini hamda taqdim etilgan ma’lumotlar to‘g‘riligini tasdiqlashini anglatadi.

### **Nomzodning shaxsiy ma’lumotlari**

F.I.Sh.: \_\_\_\_\_

Tug‘ilgan sanasi: \_\_\_\_\_

Doimiy yashash manzili: \_\_\_\_\_

ID hujjat seriyasi va raqami: \_\_\_\_\_

Fuqaroligi: \_\_\_\_\_

Grant dasturi to‘g‘risida qayerdan ma’lumotga ega bo‘ldingiz?: \_\_\_\_\_

### **Bog‘lanish uchun ma’lumotlar**

Telefon: \_\_\_\_\_

Elektron manzil: \_\_\_\_\_

## Rozilik bildirish va tasdiqlash

Men, quyida imzo chekuvchi, quyidagilarni tasdiqlayman:

☒ “Kasb jins tanlamaydi” Dasturi tashkilotchilari, jumladan “TBC Bank” ATB va tegishli hamkor universitet tomonidan, ushbu arizada ko‘rsatilgan shaxsiy ma’lumotlarimni faqatgina tanlov o‘tkazish, Dasturni boshqarish, arizachilar bilan bog‘lanish hamda tahliliy va hisobot materiallarini tayyorlash maqsadida to‘plash, qayta ishlash, saqlash va foydalanishga rozilik beraman.

☒ Mening ma’lumotlarim va materiallarimdan (jumladan, tarjimai holim, yutuqlarim, fotosuratlarim, ommaviy chiqishlarim, iqtiboslarim va boshqalar) Dasturning axborot va marketing maqsadlarida, jumladan, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va tashkilotchilarning boshqa rasmiy resurslarida maxfiylikka rioya qilish sharti bilan foydalanilishiga rozilik beraman.

☒ Dasturda ishtirok etishning quyidagi asosiy mezonlariga muvofiq ekanligimni tasdiqlayman:

- Men O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiman;
- 2025-yilda quyida tanlangan universitetda bakalavriatning birinchi bosqichida yoki Foundation Year (*zarurini belgilang*) umumta’lim bosqichida ta’lim olishni rejalashtirmoqdaman (*tegishli universitetni tanlang*);
  - ☐ American University of Technology in Tashkent
  - ☐ IT Park University
  - ☐ TEAM University
  - ☐ Amity University in Tashkent
- 4.0 dan past bo‘lmagan o‘rtacha attestatsiya bahosi (GPA) ga ega bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi attestatga egaman;
- Umumiy ball (overall band score) 7.0 va undan yuqori bo‘lgan IELTS sertifikatiga egaman (*IT Park University va TEAM University uchun ichki kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli o‘tish imkoniyati mavjud*);
- Tanlangan sohamga qiziqishim va yutuqlarimni namoyish etaman (olimpiadalar, tanlovlar, loyihalarda ishtirok etish va h.k.);
- Tadbirkorlik, texnologiya va/yoki innovatsiya sohasida o‘z faoliyatimni yuritish niyatidaman.

Nomzodning F.I.Sh.: \_\_\_\_\_

Imzo: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

## **ПОЛОЖЕНИЕ**

### **о порядке проведения конкурса на получение образовательных грантов по программе «KASB JINS TANLAMAYDI»**

#### **ГЛАВА 1. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ**

1.1. Настоящее Положение разработано между

**АКБ «TBC Bank»**, именуемое далее **«Банк»**,

а также университетами:

- **American University of Technologies in Tashkent** (далее – «AUT»);

- **IT Park University**;

- **TEAM University**;

- **Amity University in Tashkent**,

далее вместе именуемые **«Партнерские университеты»**,

в целях определения порядка организации и проведения открытого конкурса среди девушек в рамках программы Банка «Kasb Jins Tanlamaydi» (далее — «Программа») на получение гранта для покрытия расходов на обучение на первом курсе бакалавриата, либо на общеобразовательном курсе (Foundation Year) в 2025-2026 учебном году в Партнёрских университетах по направлениям предпринимательства и/или STEM (наука, технологии, инженерия, математика).

1.2. Открытый конкурс проводится с целью содействия доступу талантливых девушек к качественному образованию, развитию их потенциала и укреплению женского участия в инновационных секторах экономики.

#### **ГЛАВА 2. ОБЪЁМ И СОДЕРЖАНИЕ ГРАНТОВОЙ ПОДДЕРЖКИ**

2.1. В рамках открытого конкурса определяются семь стипендиатов, которым покрывается оплата на обучение на первом курсе бакалавриата, либо на общеобразовательном курсе (Foundation Year) в партнерских университетах (на платно-контрактной основе), в следующем количестве:

- AUT — один грант;
- IT Park University – три гранта;
- TEAM University — два гранта;
- Amity University in Tashkent — один грант.

2.2. Грант покрывает полную стоимость первого года обучения в 2025-2026 учебном году;

### **ГЛАВА 3. УСЛОВИЯ УЧАСТИЯ И КРИТЕРИИ ОТБОРА**

3.1. К участию в конкурсе допускаются девушки, которые:

- Являются гражданками Республики Узбекистан;
- Готовы начать обучение в одном из партнёрских университетов в 2025-2026 учебном году;
- Имеют аттестат о среднем общем образовании со средней аттестационной оценкой (GPA) не ниже 4.0.
- Имеют сертификат IELTS с общим баллом (overall band score) 7.0 и выше (для IT Park University и TEAM University, в качестве альтернативы IELTS может быть рассмотрена успешная сдача внутренних экзаменов в данных университетах);
- Демонстрируют активный интерес к выбранной области (участие в олимпиадах, проектах, конкурсах и т.д.);
- Стремятся построить карьеру в сфере предпринимательства, технологий и/или инноваций.

3.2. При прочих равных условиях приоритет может отдаваться кандидаткам:

- с ограниченными возможностями (при подаче документов в Партнёрские университеты необходимо предоставить соответствующую справку).

3.3. Не допускаются к участию:

- Сотрудники и близкие родственники сотрудников Банка и Партнёрских университетов;
- Лица, уже получающие полную финансовую поддержку на обучение от других организаций.

### **ГЛАВА 4. ПОРЯДОК ПОДАЧИ ЗАЯВОК И ЭТАПЫ ОТБОРА**

4.1. Подача заявок осуществляется в период с 21 июля по 13 августа 2025 года. Каждая кандидатка подаёт документы самостоятельно в один из выбранных Партнёрских университетов, в соответствии с порядком приёма, установленным данными университетами. Заявка подаётся напрямую в соответствующий университет, при этом каждый университет осуществляет приём и рассмотрение заявлений независимо от других.

4.2. Кандидатки на получение гранта в рамках настоящей Программы имеют право подать заявку на участие в конкурсе, выбрав только один из четырёх Партнёрских университетов.

4.3. Вопросы по грантам можно направлять на: [grants@tbcbank.uz](mailto:grants@tbcbank.uz)

### **Этапы отбора (предварительный график):**

- 21 июля – 13 августа: Приём заявок в выбранный университет (список необходимых документов необходимо уточнить в выбранном Партнерском университете);
- 14 – 18 августа: Рассмотрение заявок;
- 19 августа – 28 августа: Второй этап отбора: интервью с финалистками первого этапа отбора или творческий экзамен;
- До 10 сентября: Подведение итогов, утверждение победительниц.
- 15 сентября (предварительная дата, подлежит утверждению): проведение церемонии награждения.

Каждая кандидатка должна представить:

- Документы, необходимые для подачи заявки на обучение, в соответствии с требованиями и порядком приёма, установленными выбранным Партнерским университетом.
- Сертификат IELTS с общим баллом (overall band score) 7.0 и выше (для IT Park University и TEAM University, в качестве альтернативы IELTS может быть рассмотрена успешная сдача внутренних экзаменов в данных университетах);
- Заявка на получение гранта (в соответствии с Формой Заявки, представленной в Приложении 1).

### **КРИТЕРИИ ОТБОРА**

#### **Этап 1. Отбор по результатам первого этапа:**

- Наличие всех документов, необходимых для подачи заявки на обучение, в соответствии с требованиями и порядком приёма, установленным выбранным Партнерским университетом.
- Наличие заявки на получение гранта (в соответствии с Формой Заявки, представленной в Приложении 1).
- Наличие аттестата о среднем общем образовании со средней аттестационной оценкой (GPA) не ниже 4.0.
- Наличие сертификата IELTS с общим баллом (overall band score) 7.0 и выше (для IT Park University и TEAM University, в качестве альтернативы IELTS может быть рассмотрена успешная сдача внутренних экзаменов в данных университетах).

## Этап 2. Отбор победителей через очное интервью.

Отборочная комиссия проведет оценку кандидатов путем проведения очного собеседования или творческого экзамена по следующим критериям:

| Блок                                   | Вес | Цель оценки                                                                                                                                                                                                                                             |
|----------------------------------------|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Мотивация и цель участия в Программе   | 20% | Как сформулированы карьерные цели на будущее, понимание стипендиальной Программы и ее целей.                                                                                                                                                            |
| Лидерский потенциал                    | 20% | Есть ли опыт ведения команд, инициатив, решение сложных ситуаций, умение брать ответственность, работать в команде и вести людей за собой ради общей цели                                                                                               |
| Волонтерство и вклад в общество знаний | 15% | Уровень вовлечённости кандидатки в волонтерскую и/или социальную деятельность, готовность делиться опытом, продвигать STEM и предпринимательство среди женщин, а также её потенциал вносить вклад в развитие общества.                                  |
| Выбор университета и понимание курса   | 30% | Обоснованность выбора партнёрского университета и образовательной программы, выраженный интерес к соответствующей области знаний, осознание возможных сложностей и готовность к интенсивному обучению. Учитываются академические достижения в выбранной |

|                                |     |                                                                                               |
|--------------------------------|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                |     | сфере, участие в олимпиадах, конкурсах и научных проектах.                                    |
| Коммуникация и самопрезентация | 15% | Уверенность, ясность, логика, доброжелательность, структурность, открытость к обратной связи. |

*\*При прочих равных условиях приоритет может отдаваться кандидаткам с ограниченными возможностями.*

## **ГЛАВА 5. ОРГАНИЗАЦИЯ И РАБОТА ОТБОРОЧНЫХ КОМИССИЙ**

5.1. Первый этап отбора осуществляется каждый университетом самостоятельно. Для проведения второго этапа отбора, для каждого университета создаётся отдельная отборочная комиссия в составе:

- Не менее трех представителей от университета;
- Не менее одного представителя от Банка;
- Независимые члены жюри и наблюдатели: представители Азиатского банка развития, Фонда ООН в области народонаселения (UNFPA), структуры «ООН-женщины» (UN Women), гражданские активистки. Банк определит общий список независимых членов жюри и наблюдателей, которые примут участие во втором этапе отбора.

5.1. Решения комиссий являются окончательными и оформляются протоколом.

5.2. Отборочные комиссии формируют списки победителей следующим образом для каждого из Партнерских университетов:

- AUT: одна победительница и три резервные победительницы.
- IT Park University: три победительницы и три резервные победительницы.
- TEAM University: две победительницы и три резервные победительницы.
- Amity University in Tashkent: одна победительница и три резервные победительницы.

5.3. Апелляционные механизмы не предусматриваются.

## **ГЛАВА 6. ВЫПУСКНИЦЫ И ПОСТПРОГРАММНАЯ АКТИВНОСТЬ**

6.1. Победительницы конкурса обязуются успешно выполнить квалификационные требования по итогам первого семестра обучения. В случае непрохождения установленного минимального академического порога стипендиатка может быть лишена права на получение гранта на второй семестр. В этом случае право на финансирование обучения во втором семестре передаётся студентке с

наивысшей академической успеваемостью на соответствующем курсе, при условии, что она не является получателем других образовательных грантов.

6.2. Стипендиатки будут заполнять краткие квартальные формы обратной связи и направлять в Банк.

6.3. По истечении одного года с момента завершения первого года обучения стипендиатки обязаны предоставить в Банк краткий отчёт об учебных достижениях и участии в студенческой жизни университета. Банк оставляет за собой право использовать представленные материалы (полностью или частично) в маркетинговых целях, включая публикации в средствах массовой информации и социальных сетях.

## **ГЛАВА 7. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ**

7.1. В случае отказа победительницы (финалистки) от получения гранта, право на грант передаётся следующей по порядку участнице из резервного списка, в соответствии с очерёдностью, установленной комиссией. Передача места осуществляется последовательно в пределах утверждённого списка из трёх резервных кандидатов.

7.2. Победительницы конкурса (финалистки) подписывают трёхсторонний договор о предоставлении гранта на обучение на первом курсе бакалавриата с выбранным университетом и Банком.

9. Все вопросы, связанные с конкурсом, направляются на электронный адрес: [grants@tbcbank.uz](mailto:grants@tbcbank.uz)

10. Настоящее Положение вступает в силу с момента подписания Меморандумов о взаимопонимании и сотрудничестве между Банком и каждым из Партнёрских университетов и действует до окончания срока действия соответствующих Меморандумов.

## Приложение 1. Форма заявки на получение гранта на обучение.



### **ЗАЯВКА НА ПОЛУЧЕНИЯ ГРАНТА НА ОБУЧЕНИЕ В 2025-2026 УЧЕБНОМ ГОДУ В РАМКАХ ПРОГРАММЫ АКБ «TBC Bank» «KASB JINS TANLAMAYDI»**

Настоящая заявка предназначена для участия в открытом конкурсном отборе на получение образовательного гранта для обучения на первом курсе бакалавриата в 2025–2026 учебном году, по одному из направлений в области STEM (наука, технологии, инженерия и математика) или предпринимательства.

Грант предоставляется в рамках программы «KASB JINS TANLAMAYDI», реализуемой АКБ «TBC Bank», в партнерстве с университетом (отметить нужное):

- ☐ American University of Technology in Tashkent
- ☐ IT Park University
- ☐ TEAM University
- ☐ Amity University in Tashkent

Заполнение и подача настоящей заявки означает согласие с условиями участия в Программе и подтверждение достоверности предоставленных сведений.

#### **Персональные данные кандидатки**

Ф.И.О.: \_\_\_\_\_

Дата рождения: \_\_\_\_\_

Постоянный адрес проживания: \_\_\_\_\_

Серия и номер ID-документа: \_\_\_\_\_

Гражданство: \_\_\_\_\_

Как узнали о Программе гранта: \_\_\_\_\_

#### **Контактная информация**

Телефон: \_\_\_\_\_

Электронная почта: \_\_\_\_\_

#### **Согласие и подтверждение**

Я, нижеподписавшаяся, подтверждаю следующее:

☒ Даю своё согласие на сбор, обработку, хранение и использование моих персональных данных, указанных в настоящей заявке, организаторами Программы «Kasb jins tanlamaydi», включая АКБ «TBC Bank» и соответствующий партнёрский университет, исключительно в целях проведения конкурсного отбора, администрирования Программы, коммуникации с заявителями, а также подготовки аналитических и отчётных материалов.

☒ Даю согласие на использование моих данных и материалов (включая биографические сведения, достижения, фотографии, публичные высказывания, цитаты и иное) в информационных и маркетинговых целях Программы, включая публикации в СМИ, социальных сетях и других официальных ресурсах организаторов при условии соблюдения конфиденциальности чувствительной информации.

☒ Подтверждаю соответствие следующим основным критериям участия в Программе:

- Являюсь гражданкой Республики Узбекистан;
- Планирую начать обучение на первом курсе бакалавриата либо на общеобразовательном курсе - Foundation Year (подчеркнуть нужное) в выбранном университете в 2025 году (отметить нужное):
  - ☐ American University of Technology in Tashkent
  - ☐ IT Park University
  - ☐ TEAM University
  - ☐ Amity University in Tashkent
- Имею аттестат о среднем общем образовании со средней аттестационной оценкой (GPA) не ниже **4.0**;
- Обладаю сертификатом **IELTS** с общим баллом (overall band score) **7.0 и выше** (для IT Park University и TEAM University допускается альтернатива — успешная сдача внутренних вступительных экзаменов);
- Демонстрирую интерес и достижения в выбранной области (участие в олимпиадах, конкурсах, проектах и т. п.);
- Намерена построить карьеру в сфере предпринимательства, технологий и/или инноваций.

Ф.И.О. кандидатки: \_\_\_\_\_

Подпись: \_\_\_\_\_

Дата: \_\_\_\_\_